



**TURKISTONDA AYOLLAR MA'RIFATI, DAVLAT MODERNIZATSIYASI VA
AN'ANAVIY IJTIMOYIY NORMALAR O'RTASIDAGI TRANSFORMATSIYA
JARAYONLARI**

Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha

qo'mita Bosh mutaxassisi

e-mail: xxmao1993@gmail.com

orcid: 0009-0005-6647-7172

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asrning birinchi choragida Turkistonda xotin-qizlar ta'limining institutsional evolyutsiyasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda Rossiya imperiyasining “aralashmaslik” siyosati, an'anaviy bibi-xalfa maktablarining ijtimoiy funktsionalligi hamda sovet davridagi radikal gender islohotlari o'rtasidagi ziddiyatli jarayonlar yoritilgan. Tadqiqotda ayollar ta'limiga to'sqinlik qilgan omillarni nafaqat diniy, balki uy xo'jaligi iqtisodiyoti va ijtimoiy identitet nuqtayi nazaridan asoslab berishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Turkiston, xotin-qizlar ta'limi, modernizatsiya, ijtimoiy normalar, bibi-xalfa, rus-tuzem maktablari, Jenotdel, ma'rifatparvarlik.

**TRANSFORMATION PROCESSES BETWEEN WOMEN'S ENLIGHTENMENT,
STATE MODERNIZATION, AND TRADITIONAL SOCIAL NORMS IN
TURKESTAN**

Khabibullo Khoji Muhammadyusuf Alisher ogli

Chief Specialist, Committee on Religious Affairs

of the Republic of Uzbekistan

E-mail: xxmao1993@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6647-7172

Abstract. This article analyzes the institutional evolution of women's education in Turkestan from the late nineteenth century to the first quarter of the twentieth century. The study examines the contradictory processes between the Russian Empire's policy of “non-interference,” the social functionality of traditional bibi-khalifa schools, and the radical gender reforms of the Soviet period. Particular attention is given to substantiating



the factors that hindered women's education not only from a religious perspective, but also through the lenses of household economy and social identity.

Keywords: Turkestan, women's education, modernization, social norms, bibi-khalfa, Russian-native schools, Zhenotdel, enlightenment.

ТРАНСФОРМАЦИОННЫЕ ПРОЦЕССЫ МЕЖДУ ЖЕНСКИМ ПРОСВЕЩЕНИЕМ, ГОСУДАРСТВЕННОЙ МОДЕРНИЗАЦИЕЙ И ТРАДИЦИОННЫМИ СОЦИАЛЬНЫМИ НОРМАМИ В ТУРКЕСТАНЕ

Хабибулло Ходжи Мухаммадюсуф Алишер угли

Главный специалист Комитета

по делам религий Республики Узбекистан

E-mail: xxmao1993@gmail.com

ORCID: 0009-0005-6647-7172

Аннотация: В статье анализируется институциональная эволюция женского образования в Туркестане в конце XIX — первой четверти XX века. В исследовании освещаются противоречивые процессы между политикой «невмешательства» Российской империи, социальной функциональностью традиционных школ биби-халфа и радикальными гендерными реформами советского периода. Особое внимание уделяется обоснованию факторов, препятствовавших женскому образованию, не только с религиозной точки зрения, но и с позиций домашней экономики и социальной идентичности.

Ключевые слова: Туркестан, женское образование, модернизация, социальные нормы, биби-халфа, русско-туземные школы, Женотдел, просветительство.

Kirish. XIX asrning ikkinchi yarmida G'arbiy Yevropa, AQSh va Rossiya imperiyasining markaziy shaharlarida shakllangan "ayollar masalasi" (the woman question) global ijtimoiy-siyosiy kun tartibining ajralmas qismiga aylandi. Bu davrda ayollarga erkaklar bilan teng fuqarolik huquqlarini berish, mulkiy daxlsizlik va, eng



muhammadiy, tizimli ta'lim olish imkoniyatini yaratish g'oyalari chekka muhokamalardan umumdavlat darajasidagi strategik masalalar sahnasiga ko'tarildi. Rossiya imperiyasida Aleksandr II ning 1861-yildagi islohotlari natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy evrilishlar ta'lim sohasida ham o'z aksini topdi. Sankt-Peterburgdagi Bestujev oliy kurslarining ochilishi (1878) ayollar uchun intellektual mehnat va kasbiy o'sish eshiklarini ramziy ma'noda ochib berdi.

Biroq, bu g'oyaviy to'lqin Turkiston mintaqasiga kirib kelganida mutlaqo o'zgacha — kolonial va sotsiomadaniy jihatdan murakkab qobiqqa o'raldi. Markaziy Osiyoda ayollar ma'rifati masalasi shunchaki "bilim berish" emas, balki ikki xil qarama-qarshi modernizatsiya to'lqinining to'qnashuv maydoniga aylandi

Asosiy qism. Mintaqada ta'lim tizimining institutsional o'zgarishi bevosita General K.P. Kaufman tomonidan 1867-yilda ishlab chiqilgan "aralashmaslik" siyosatining uzoq muddatli ta'siri ostida shakllandi. Ushbu strategiya mahalliy aholining diniy va oilaviy hayotiga daxl qilmaslik orqali ma'muriy barqarorlikni ta'minlashni ko'zlardi. Natijada, shahar markazlarida konfessional ta'lim tarmog'i o'zining inertsia kuchi bilan rivojlanishda davom etdi. P.I. Pashinoning kuzatuvlariga ko'ra, birgina Toshkent shahrining o'zida 300 ga yaqin eski usul maktablari faoliyat yuritgan bo'lib, qizlar ta'limi asosan mullalarning xotinlari — bibi-xalfalar huzurida, uy sharoitida amalga oshirilgan¹. Bu tizimda qizlar nafaqat savod chiqargan, balki arab va fors tillarini o'g'il bolalarga nisbatan puxtaroq egallash imkoniga ega bo'lgani qayd etiladi. Biroq, bu ma'rifat modeli ochiq ijtimoiy lift vazifasini o'tamay, ko'proq oilaviy uzluksizlik va diniy-axloqiy qadriyatlarni qayta ishlab chiqarishga xizmat qilgan. Ta'limga kirish imkoniyat qat'iy sinfiy va iqtisodiy filtrlardan o'tgan: o'quv xarajatlari vaqflar hamda mahsulot shaklidagi to'lovlar hisobidan qoplangani bois, ko'p bolali kambag'al oilalar uchun qiz bolaning maktabga borishi uy xo'jaligi resurslarining "behuda" sarfi va oila boquvchisi bo'lishi kutilayotgan o'g'il bolalar imkoniyatining cheklanishi sifatida ko'rilgan.

1884-yildan boshlab imperiya ma'muriyati tomonidan joriy etilgan rus-tuzem maktablari modernizatsiyaning kolonial shakli edi. N.P. Ostroumov kabi mafkurachilar bu maktablarni mahalliy larni ruslashtirish va quyi boshqaruv bo'g'ini uchun kadrlar

¹ Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. СПб.: Типография Тиблена и Ко; 1868. с. 159



tayyorlash quroli deb bilsalar-da, amaliyotda bu model jiddiy qarshilikka uchradi². Ayniqsa, qizlar ta'limi masalasida “an'anaviylik himoyasi” keskinlashdi. V.P. Nalivkin Pskent va Chinoz misolida tasvirlaganidek, yangi maktablarning ochilishi mahalliy ayollar orasida motam marosimidek nola bilan kutib olingan³. Bu reaksiya shunchaki savodsizlik belgisi emas, balki shariat ilmidan uzilgan farzandning o'z jamiyatidan begonalashishi va identitetini yo'qotishidan qo'rqish hissi edi. Bundan tashqari, iqtisodiy omil ham o'z so'zini aytgan: Samarqand va Marg'ilondagi davlat qizlar maktablarida yillik to'lovning 15 rubl qilib belgilanishi o'sha davr uchun o'ta yuqori bo'lib, ta'limga bo'lgan pragmatik ehtiyojni pasaytirib yuborgan. Shunday qilib, imperiya davrida ta'lim inshootlari barpo etilgan bo'lsa-da, ular mahalla hayotiga “mos tushmagani” bois ommalasha olmadi.

1917-yildan keyingi davrda bolsheviklar ayollar ta'limini modernizatsiya dasturining markaziy bo'g'ini sifatida belgiladilar. Endi ma'rifat shunchaki bilim berish emas, balki butun hayot tarzini o'zgartirishga qaratilgan “ijtimoiy muhandislik” loyihasiga aylandi. 1920-yildan faoliyat boshlagan Jenotdel tizimi va xalq maorifi institutlari (Inproslar) orqali ta'lim yuqoridan pastga qarab majburiy institutsionalizatsiya qilindi. Vaqf tizimining qayta tashkil etilishi va madrasa resurslarining dunyoviy maktablarga yo'naltirilishi natijasida “Shura-maktabe” kabi mahalla bilan uzviy bog'langan yangi formatlar paydo bo'ldi. Ayollar uchun ochilgan kechki kurslar va “likbez” guruhlar alifbo o'rgatishdan tashqari, sanitariya-gigiyena, huquqiy ong va kasbiy ko'nikmalarni (tikuvchilik, to'qimachilik) ham qamrab oldi. Maqsad ayolni oilaviy qobiqdan chiqarib, uni faol mehnat resursiga aylantirish edi. Biroq, Ella Kristi kabi sayohatchilar qayd etganidek, bu jarayon ko'pincha “laboratoriya tartibisiz kechgan tajriba”ga o'xshab ketardi: tartibning sustligi, darsliklar va malakali o'qituvchilar yetishmasligi yangi tizimning sifat darajasiga shubha tug'dirardi⁴.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, Turkistonda ayollar ta'limining

² Остроумов Н.П. Колебания во взглядах на образование туземцев в Туркестанском крае. Кауфманский сборник, изданный в память 25 лет, истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана. М.: Типо-литография Т-ва И. Н. Кушнерева; 1910. С. 140–160.

³ Наливкин В.П. Что дает среднеазиатская мусульманская школа в образовательном и воспитательном отношениях? Туркестанский литературный сборник в пользу прокаженных. СПб.: Типография А. Бенке; 1900. – С. 215–278.

⁴ Christie E.R. Through Khiva to Golden Samarkand. The Remarkable Story of a Woman's Adventurous Journey Alone Through the Deserts of Central Asia to the Heart of Turkestan. Philadelphia: J. B. Lippincott Company; 1925. 280 p.



transformatsiyasi uchta asosiy tizimli to'siqqa duch kelgan. Birinchidan, institutsional zaiflik — tezkorlik bilan ochilgan maktablarning infratuzilmasi va kadrlar ta'minoti g'oyaviy maqsadlar ortidan yetisha olmadi. Ikkinchidan, dunyoviy bilimlarning mahalliy qadriyatlar bilan integratsiyalashuvidagi uzilishlar ta'limni “begona element” sifatida saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Uchinchidan, eng muhimi — ta'limning ayol ijtimoiy mavqeiga ta'siri borasidagi ishonchning yetishmasligi edi. Uy xo'jaligi mantig'iga ko'ra, qiz bolaning maktabga sarflaydigan vaqti uy yumushlari va qarindosh-urug' parvarishidan mahrum bo'lishni anglatardi. Shu sababli, ma'rifat faqatgina mafkuraviy bosim orqali emas, balki ayolning jamiyatdagi iqtisodiy o'rni va huquqiy kafolatlari real o'zgargan nuqtadagina natija bera boshladi.

Xulosa. Turkistonda xotin-qizlar ta'limining institutsional evolyutsiyasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu jarayon shunchaki ma'rifiy islohot emas, balki mintaqaning sotsiomadaniy landshaftini o'zgartirishga qaratilgan murakkab va ziddiyatli kurash maydoni bo'lgan. Tadqiqot natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, Rossiya imperiyasi davridagi “aralashmaslik” siyosati kutilganidan boshqacha natija berdi. Davlatning mahalliy ta'lim tizimini e'tiborsiz qoldirishi konfessional maktablarning (bibixalfa instituti) o'z-o'zini saqlab qolish mexanizmini kuchaytirdi. Bu davrda ayollar savodxonligi diniy-axloqiy qadriyatlar himoyachisi sifatida oila ichida konservatsiya qilindi. Rus-tuzem maktablarining muvaffaqiyatsizligi esa ta'limning mazmuni mahalliy identitet va ijtimoiy ehtiyojlarga mos kelmaganida, shuningdek, uning kolonial xarakterida edi.

Ikkinchidan, 1917-yildan keyingi sovet davri ayollar ma'rifatida “radikal transformatsiya” bosqichini boshlab berdi. Bolsheviklar ma'rifatni ayollarni oilaviy qobiqdan chiqarish va ularni davlatning yangi iqtisodiy-siyosiy loyihalariga jalb etishning bosh vositasi sifatida ko'rdi. Jenotdel va Inpros tizimi orqali ta'limning institutsional darajada markazlashtirilishi, vaqf resurslarining dunyoviy maqsadlarga yo'naltirilishi ta'limni ommaviy xarakterga keltirdi. Biroq, bu o'zgarishlar infratuzilma tanqisligi va “madaniy laboratoriya” formatidagi tartibsiz tajribalar fonida kechdi.

Uchinchidan, ayollar ta'limining muvaffaqiyati faqat maktablar soni bilan emas, balki uchta asosiy omilning kesishmasida hal bo'ldi:



- O'qituvchi, darslik va moddiy bazaning mavjudligi;
- Ta'lim dasturining mahalliy til va qadriyatlar bilan integratsiyalashuvi;
- Oila va mahallaning ta'limga bo'lgan iqtisodiy va huquqiy ishonchi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, imperiyadan sovetga o'tish davrida ayollar ma'rifati uzluksizlik (shahar markazlashuvi, an'anaviy tarmoq kuchi) va uzilish (institutsional yangilanish, ideologik qayta tarbiyalash) o'rtasidagi muvozanatni izlash jarayoni bo'ldi. Ma'rifat faqat darsliklardan iborat emas, u ayolning jamiyatdagi iqtisodiy va huquqiy rolini qayta belgilovchi yangi ijtimoiy shartnoma edi. Biroq, o'n yilliklar davomida shakllangan an'anaviy normalar yangi tizimni doimiy ravishda mahalliy voqelikka moslashishga va murosaga kelishga majbur qildi, bu esa mintaqa tarixidagi o'ziga xos transformatsiya modelini yaratdi.

Adabiyotlar:

1. Остроумов Н.П. Колебания во взглядах на образование туземцев в Туркестанском крае. Кауфманский сборник, изданный в память 25 лет, истекших со дня смерти покорителя и устроителя Туркестанского края генерал-адъютанта К.П. фон Кауфмана. М.: Типо-литография Т-ва И. Н. Кушнерева; 1910. С. 140–160.
2. Пашино П.И. Туркестанский край в 1866 году. Путевые заметки. СПб.: Типография Тиблена и Ко; 1868. с. 159
3. К истории народного образования в Туркестанском крае. Константин Петрович фон Кауфман – устроитель Туркестанского края. Из личных воспоминаний Н. П. Остроумова (1877–1881 гг.). Ташкент: Типо-литография торг. дома Ф. и Г. Бр. Каменские; 1899. с. 245.
4. Остроумов Н.П. Мадрасы в Туркестанском крае. Журнал Министерства народного просвещения. 1907; Ч.7:1–58.
5. Наливкин В.П. Что дает среднеазиатская мусульманская школа в образовательном и воспитательном отношениях? Туркестанский литературный сборник в пользу прокаженных. СПб.: Типография А. Бенке; 1900. – С. 215–278.



6. Christie E.R. Through Khiva to Golden Samarkand. The Remarkable Story of a Woman's Adventurous Journey Alone Through the Deserts of Central Asia to the Heart of Turkestan. Philadelphia: J. B. Lippincott Company; 1925. 280 p.